

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI OG'ZAKI NUTQINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Karamatova D. S.

Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi

Akramova P. S.

Nizomiy nomidagi TDPU 2-kurs talabasi

Tel: (99) 893-24-24

Annotatsiya:

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining og'zaki og'zaki nutqini shakllantirishda turli usullardan foydalanishning mazmuni haqida so'z borgan.

Abstract:

The article talks about the meaning of using different methods in forming the oral speech of elementary school students.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, nutq, dunyoqarash, suhbat metodi, savol- javob, kitob ,didaktik o'yin, erkin fikrlash.

Key words: Elementary class, speech, outlook, interview method, question-answer, book, didactic game, free thinking.

Jahon mamlakatlarining ta'lif jarayonlari va uni inosnlarga ulashish tajribalaridan kelib chiqib, barcha o'qituvchi va o'quvchilardan bilimli, zehnli bo'lishi bilan bir qatorda muomala madaniyati uchun zarur bo'lgan og'zaki nuqtinining mazmunli va ibratli bo'lishi talab etilmoqda. Jumladan; Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusning 4-tashabbus yo'nalishi ham aynan yoshlar kitobxonlik madaniyatini shakllantirish haqida so'z borgan. O'quvchilarni og'zaki nutqini rivojlantirish asosan 1-4 sinflardan boshlanadi. O'quvchilarni og'zaki nutqini rivojlantirish uchun ularni turli xil kitoblar, ertak kitoblar o'qishi ko'proq samara beradi. O'quvchilarni har bir fikrini boshqalarga to'g'ri tushuntira olishi kerak. O'quvchilarni og'zaki nutqini rivojlantirishda o'qituvchi turli metodlardan foydalanishi mumkin[1]. Biz oddiy

metodni savol -javob, suhbat va maruza metodlarini tanlayman. Bunda o'quvchilardan o'qituvchi ko'proq savol- javob o'tkazishi suhbatlar qurishi kerak va mavzu yuzasidan o'z fikrini bayon qilishni so'rash kerak. Keyin dars mobaynida ko'proq yozish bilan fikr almashishlari kerak. Agar boshlang'ich sinfda o'quvchilarni og'zaki nutqini shakllantirmasa keyin bolalar tortinchoq, o'z fikrini boshqalarga bemalol bayon qila olmaydi[2]. Shuni o'qituvchi his qilgan holda o'quvchilarni og'zaki nutqini rivojlantirishga ham alohida mas'uliyat bilan yondoshish kerak. O'quvchilarni og'zaki nutqini shakllantiruvchi vositalar ko'p. Bular: turli xil o'quvchini yosh va yosh xususiyatlariiga mos kitoblar, turli xil savol-javoblar, didaktik o'yinlar va boshqalar[3]. O'quvchi uni o'qigan va o'qituvchi o'quvchilardan so'rash lozim. O'quvchilarga siz shu vaziyatda nima qilgan bo'lardingiz deb so'ramog'i lozim. So'rash va unga yaxshi javob berish, o'quvchilarni og'zaki nutqini rivojlanishiga xizmat qiladi. Bunda o'quvchida ham o'qituvchida ham kitobga mehr uyg'onadi, shu bilan birga dunyoqarashi kengayib va og'zaki nutqini rivojlantiradi. Bundan tashqari turli xil didaktik o'yinlar ham rivojlanishiga xizmat qiladi. O'qituvchi o'quvchini tenglayotganda uni fikrini oxirigacha tenglashi kerak va xato qilsa, tuzatish kerak bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarda notiqlik, so'zamonlik, suxondonlik san'atini o'rgatishi kerak. O'qituvchi bolalarga ta'lim-tarbiya bilan birgalikda o'quvchilarda notiqlik madaniyatini ham singdirish, uni rivijlantirish vazifasi hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya bersa-yu, agar og'zaki nutqini rivojlantirmasa, o'quvchi o'rgangan bilmlarini ham yuzaga chiqara olmaydi. Yuzaga chiqarmasa amaliyotda qo'llay olmaydi. Har bir o'qituvchi o'z o'quvchilarida nutqini shakllantirish zarur hisoblanadi. Ko'p o'quvchilarda bilim bor, ammo uni yuzaga chiqara olmaydi, ya'ni nutqi rivijlantirmagan. Agar bilm bo'lsa-yu yuzaga chiqarmasa u asta sekinlik bilan so'nib yo'q bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida quyidagi metodik va pedagogik amallar doimiy olib borilsa, og'zaki nutqi yaxshi shakllanadi. Tavsiyalar:

- tez aytish aytish;
- z,y,r,s,l harfdagi so'zlarni ko'proq talaffuz qilish;
- she'rlarni ko'proq yodlatish va uni aytib berish;
- biror bir ma'lumotni ma'ruza qilish;
- savol -javobni tez-tez o'tkazib turish;
- fikrini inobatga olish;



- fikr aytayotganida uni oxirigacha tinglash;

Yuqoridagi fikrlarning orasidan eng muhimlaridan biri bu – o'quvchi fikrini tinglashdir. Uni fikrini tenglash asta-sekin fikrini va aytib og'zaki nutqini shakllantirishga olib keladi. Bundan tashqari, o'quvchilarni nutqi shakllantirishga o'qituvchi oilasi bilan hamkorlikda shakllantirish lozim. Bir o'quvchi ko'p gapirmaydi, darsda faol ishtirok etmaydi. Uyga vazifani so'rasha gapirolmaydi, gapirishga tortinadi, ma'lumot haqida tushunchaga ega, ammo ayta olmaydi. Shunda ustozni oilasi bilan suhbatlashib, o'sha o'quvchisidan oilada undan ko'proq fikrini so'rashini u bilan savol -javob qilishini so'rab oila hamkorligini ham olib borib mumkin. O'quvchi ma'lumotlarni ko'proq o'qib berib nutqi shakllanadi. Bunday vaziyatlarda o'qituvchi o'z o'quvchilarni har qanday vaziyatga ya'ni gapirishga ham yozishga ham tayyorlash vazifasi turadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi taklif etilgan usullar orqali o'quvchilarda quyidagi natijaga erishish mumkin:

- og'zaki nutq rivojlanadi;
- harf so'zlarni to'g'ri talaffuz qiladi;
- nutq madaniyati shakllanadi;
- insonlar bilan erkin muloqotga kerishadi;
- bilimli bo'ladi;
- dunyoqarashi kengayadi;
- nutq sofligi va ixshamligi oshadi;
- erkin fikrini bildiradi;
- o'rinli fikr bildirish qobiliyati shakllanadi;
- kitoblarga mehr oshib boradi;

Har bir o'quvchining kitobga mehr qo'yish va nutqi shakllanishi jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi deganidir. Zero, Odobning boshi til.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUUXATI

1. Ahmedova Malohat Ergashevna. Pedagogika nazariyasi av tarixi „Tafakkur - Boston “Toshkent-2011.
2. Karima Qosimova, Safo Matchon,Xolida Gulomova, Sharofat Yuldasheva, Sharifjon Sariyev Ona tili òqishish metodikasi „Bayoz nashriyoti “ Toshkent-2022.
3. O'tkir O'tanov „Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” Samarqand-2016.



Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences
Hosted online from Toronto, Canada.
Date: 5th June, 2023
ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

4. Sadinovna, K. D. (2022). Integrative approach to forming ecological culture of future primary class teachers. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 6, 82-86.
5. Hayitov, A., & Azizova, S. (2022). Abu nasr farobiyning “fozil odamlar shahri” asari-bugungi kun yoshlarining ma’naviyat maktabi sifatida. *Science and innovation*, 1(B7), 432-438.
6. Sadinovna, K. D., & Qizi, M. M. M. R. (2022). Boshlangich sinflarda ta’lim sifatini oshirishda texnik vositalardan samarali foydalanish. *Science and innovation*, 1(B2), 152-154.
7. Hayitov, A., & Yusupova, I. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarida mantiqiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish usullari. *Science and innovation*, 1(B7), 1262-1267.
8. Караматова, Д. С. (2021). Синфдан ташқари машғулотлар орқали ўқувчиларни ижодий фаолиятга йўналтириш методлари. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1(2), 4-9.
9. Hayitov, A., & Xo’Shboqova, F. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarida kommunikativ madaniyatni shakllantirish. *Science and innovation*, 1(B7), 1028-1034.